



HUQUQNI SHARHLASHNING ASOSIY MAQSADI VA UNING TURLARI

Kayumova Farzona Xayrulla qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy sudlov fakulteti 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6545193>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01- may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 15- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Konstitutsiya, parlament, huquqni sharhlash, rasmiy sharhlash, norasmiy sharhlash, subyekt, huquqiy xulq-atvor.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada huquqni sharhlash tushunchasi, paydo bo'lishi, rivojlanishi, hozirgi zamondagi o'rni, uning turlari va faoliyati, shu doiraga oid qonun hujjatlari, shuningdek, yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularning takliflari bayon etildi va ko'rib chiqildi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz 1991-yilda mustaqillikka erishganch, Konstitutsiya qabul qilindi va shu asosda huquqiy islohotlar o'tkazilishiga eshik ochib berildi, ko'pgina yangi qonunlar qabul qilindi. «Davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi tarmog'i bo'lmish milliy parlamentimiz tashkil etilganidan beri 400 dan ortiq qonun va boshqa normativ hujjatlar qabul qilindi. Mazkur huquqiy hujjatlar davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash hamda uni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishning huquqiy negizini tashkil etdi»¹. Bu qonun va boshqa normativ hujjatlarni, har bir normani hayotga to'g'ri tatbiq qilish, qo'llash, ya'ni ular bilan jamiyatda, kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish muhim ekanligini davr taqozosi qilinib hozir ham aytib

kelinmoqda. Chunki noto'g'ri anglangan har qanday normati huquqiy hujjat, kelajakda huquqiy muammolarni bartaraf etishni o'riga keltirib chiqarishi mumkin. Buning uchun har bir tatbiq etiladigan huquqiy normaning mohiyati va mazmunini to'g'ri tushunib, anglab olish va sharhlash g'oyat katta nazariy va amaliy ahamiyatni taqozo etadi.

Boshqacha aytganda, huquqning ta'sirchan xususiyati uning muhim jihatlaridan hisoblanadi. Qonun, aslida, ijro etilayotganida, kishilar xatti-harakatlarida ro'yobga chiqayotganida yashaydi. Biroq rasmiy huquqiy talabning bajarilishi faqat bajaruvchi tomonidan uning mazmuni tushunilgan taqdirdagina amalga oshishi mumkin². Huquqiy vaziyatni va unga

¹ Odilqoriyev H., Tulteev I., Muhamedov O'. Ikki palatali parlament. T., 2004, 8-bet.

² Islomov Z. M. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. 1-nashr – T.: "Adolat" nashriyot, 2007. –687 bet ³ Odilqoriyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. 1-nashr – T.: O'zbekiston Respublikasi



nisbatan qo'llanadigan huquqiy me'yorlar mazmunini mukammal anglab, to'la tushunib ish tutish uning mahsuldor va samarali bo'lishini kafolatlaydi. Albatta, qo'llaniladigan huquqiy normaning mazmunini teran tushunib olishga sharhlash instituti ko'maklashadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimdek, «sharhlash» atamasi – ma'nosi bo'yicha lotincha «interpretatsiya» tushunchasi bilan bir xil. Shuning uchun ham, huquqni sharhlash bilan shug'ullanuvchi shaxs esa interpretator, ya'ni sharhlovchi deb ataladi. Filologik nuqtai nazardan «sharhlash» atamasi «bilish» tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Shu ma'noda sharhlash biron-bir hodisa ma'nosi, mazmun-mohiyatini bilib olish demakdir. Sharhlashning bosh mezoni aniqlash ekanligi ing isboti qilib, «Sharhlash-aniqlash» tushunchasini sharhlovchi ongidan tashqariga chiqmaydigan bilishning ichki tafakkur jarayoni ekanligi isbotidir. Agar falsafiy jihatdan tavsif beradigan bo'lsak, aniqlash bu sharhlashning gnoseologik, ya'ni bilishga xos tabiatini belgilaydi. Uning ikkinchi asosiy xossasi qilib, «Sharhlash-tushuntirish»ni misol qilib keltirsak bo'ladi. Chunki u huquqning bilib olingan ma'nosini bayon etish hamda boshqa shaxslar e'tiboriga yetkazish faoliyatidan iborat bo'ladi. Albatta, bu faoliyat sharhlovchi «o'zi uchun» huquq ma'nosini aniqlab olganidan keyingina olib borilishi mumkin³. Misol qiladigan bo'lsak, u oldin keluvchi mulohaza, tushuntirish, xulosa shaklidagi bilish faoliyatini ochib beradi,

to'liqroq qilib aytganda «aniqlashtiradi». Tushuntirish, birinchidan, sharhlashning aqliy-irodaviy jarayoni sifatida, ikkinchidan, shu jarayon natijasi sifatida sharhlanayotgan hujjatlar (qaror, tushuntirish, yo'riqnoma va hokazolar) ko'rinishida namoyon bo'ladi⁴.

Demak, huquqni sharhlash maxsus yuridik kategoriya sifatida o'zining alohida mazmun va mohiyatiga ega bo'larkan. Yuqorida aytganimdek, amaliyotda huquq normalarining to'g'ri va aniq tatbiq etilishi uchun ularni sharhlash zarur, chunki noto'g'ri tushunilgan har qanday qonunchilik hujjati ertaga har qanday huquqiy muammoni yumshatish o'rniga alangalab yuborishga sababchi bo'lishi mumkin. Xo'sh, endi huquqni sharhlash atamasiga fikrimni qaratadigan bo'lsak, huquqni sharhlash tushunchasi adabiyotlarda turlicha talqin etilishiga guvoh bo'lamiz. Ba'zi bir mualliflar, huquqni sharhlash deganda – faqat huquq normasi

mazmunini aniqlab olishni tushunsalar, boshqalar esa, huquqiy norma mazmunini tushuntirishni sharhlash deb hisoblaydilar. Uchinchi yondashuv tarafdorlarining fikricha, huquqni sharhlash – huquq mazmunini ham aniqlash, ham tushuntirib berishdan iborat⁵. Ba'zida uning tushunchasini idrok etishda dastlabki ikki yondashuvda bir tomonlamalikka yo'l qo'yiladi. Huquqni sharhlashning mazkur jihatlari quyidagicha ta'riflanadi: Huquqning ma'nosini aniqlash va tushunish, ya'ni shaxsning huquq

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, 2009. –381 bet

³ Islomov Z. M. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. 1-nashr – T.: "Adolat" nashriyot, 2007. –688 bet

⁴ Morozova L.A. Теория государства и права. Darslik.4-nashr – M. – 2008. – 268 bet

⁵ Odilqoriyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. 1-nashr – T.: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, 2009. –382 bet



normasini anglash va o'rganish jarayonidir. Bunda shaxs huquq haqidagi dastlabki tasavvurga ega bo'ladi, u haqidagi mavjud ma'lumotlarni o'zlashtiradi. Huquq normasining mazmunini tushuntirib berish – vakolatli davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning normativ-huquqiy hujjatlarda mujassamlangan davlat irodasini huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilariga bayon etish va tushuntirishga qaratilgan maxsus faoliyat hisoblanadi.

Shunisi e'tiborga molikki, o'z vaqtida G.F.Shermenevich tomonidan sharhlash tajribasi va usullari «birgalikda fanga emas, balki sharhlash san'atiga asos bo'ladi», degan taxminni bildirgandi. Bu da'vo unchalik to'g'ri emas: muayyan aqliy faoliyat sifatida sharhlashda, shubhasiz, nafaqat san'at, balki fan elementlari ham mavjuddir.

Huquqni sharhlash turlari haqidagi masala – bu huquqni tushuntirish faoliyati, natijalari va sharhlanayotgan hujjatlarning yuridik tabiati to'g'risidagi masaladir. Gap shundaki, huquqni sharhlash hujjatlari huquq normalari ma'nosini tushuntirishning aniq natijalari sifatida namoyon bo'ladi. Ularning yuridik xususiyati va amaliyotdagi ahamiyati huquqni sharhlash subyektlari vakolati bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida:

- davlat hokimiyati organlari;
- davlat boshqaruvi organlari;
- sud, prokuratura, ichki ishlar vazirligi organlari;
- jamoat tashkilotlarining markaziy organlari;
- alohida shaxslar huquqni

sharhlash bilan shug'ullanadilar.

Shuning uchun huquqni sharhlash hujjatlari turli yuridik kuchga, amaliy ahamiyatga, ya'ni turli yuridik xususiyatga ega bo'lgan huquqiy hujjatlarning murakkab, ko'p darajali tizimidan iborat hisoblanib kelinadi.

Ma'lumki, huquqni sharhlash hujjati – muayyan huquqiy normani qay tarzda tushunish va amaliyotda qo'llashni tushuntirib beruvchi hujjat. Subyektlarga bog'liq ravishda huquqni sharhlashning ikki turi va shunga mutanosib ravishda hujjatlarning ikki guruhi:

1. rasmiy sharhlash;
2. norasmiy sharhlash⁶.

Huquqni sharhlashning subyektlarga bog'liq ravishdagi 2 guruhini tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi bo'lib rasmiy sharhlash haqida ma'lumot berib o'tamiz. Rasmiy sharhlash – qonun bilan sharhlash vakolati berilgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan sharhlash bo'lib, u hamma uchun umummajburiy ahamiyat kasb etadi. Rossiyalik huquqshunos olim V.V.Lazerev fikricha, rasmiy sharhlash – bu hujjatlar qaysi davlat organi tomonidan chiqarilsa, ushbu organi sharhlanishi hisoblanib, u autentik sharhlash nomini oladi; agar normativ-huquqiy hujjatlarni tegishli organlari o'zlari chiqarmay, ularga huquqiy hujjatlarni sharhlash majburiyati yuklangan bo'lsa va yangi o'zlari chiqarmagan normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlasalar, mazkur sharhlash legal sharhlash deyiladi. Bundan kelib chiqadiki, rasmiy sharhlash muhim ahamiyatga ega. Chunki rasmiy sharhlash

⁶ Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. 2-nashr – T.:Yuridik adabiyotlar publish, 2021. – 200 bet.



davlat irodasini bevosita namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. 2021-yil 20-aprelda O'RQ 682-sonli "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" gi qonun yangi tahriri qabul qilindi. Ushbu qonunning 55-moddasiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash normativ-huquqiy hujjatda noaniqliklar topilgan, u amaliyotda noto'g'ri yoki ziddiyatli tarzda qo'llanilgan taqdirda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qonunlari normalariga rasmiy sharhni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi beradi, deb qayd etib o'tilgan.

Sharhlanayotgan huquq normalarining umummajburiyligi sharhlayotgan subyektning holatiga, huquqiy maqomiga bog'liq bo'ladi. Yurisprudensiyada rasmiy sharhlash shartli ravishda normativ (umumiy) va kazual turlarga bo'linadi. Boshqa bir olimni fikrlariga to'xtaladigan bo'lsak, qonunning rasmiy talqini-tushuntirilishi: a) vakolatli davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan beriladi; bu vakolat maxsus aktlarda mustahkamlangan; b) boshqa subyektlar uchun majburiydir; v) huquqiy ahamiyatga ega, chunki u huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi va huquqiy normani bir xil tushunishga qaratilgan⁷. Shunday deyishimiz mumkinki, rasmiy sharhlash davlat hokimiyat organlaridan kelib chiqadigan hamda izohlanayotgan norma bilan o'zaro munosabatlarni tartibga solinadigan barcha sub'ektlar uchun majburiy xususiyatga ega bo'lgan huquq normalarini tushuntirish

hisoblanadi. Rasmiy sharhlashni ba'zan legal, ya'ni qonunga asoslangan, bajarilishi majburiy deb ham atashadi. Yurisprudensiyada rasmiy sharhlash shartli ravishda normativ (umumiy) va kazual turlarga bo'linadi.

A.S.Pigolkin fikricha, norasmiy sharhlash qonun ustuvorligi mazmunini ochib berish uchun rasmiy vakolatlarga ega bo'lmagan subyektlar tomonidan beriladi: ommaviy tashkilotlar, ilmiy va o'quv muassasalari, amaliyotchilar va boshqalar. Uning muhim xususiyati shundaki, u qonuniy kuchga ega emas va hech qanday huquqiy oqibatlarga olib kelmaydi. Majburiy bo'lmagan holda, ya'ni yuridik kuchga ega bo'lmay turib, norasmiy talqin, baribir, ijtimoiy va individual ongning shakllanishiga va muayyan subyektlar xulq-atvoriga katta ta'sir ko'rsatadi, chunki oddiy aholi ham yoki huquqshunoslik yo'nalishi talabasi ham o'z huquqlarini o'rganishga qiziqadi va asosan, norasmiy sharhlash hujjatlarini afzalroq bilishadi. Yana bir misol, huquqshunos olimlar tomonidan ishlab chiqiladigan hamda tergovchilar va sudyalarning alohida hurmatiga sazovor bo'lgan kodekslarga sharhlar ham kiradi. Norasmiy sharhlashning oddiy, kasbiy va doktrinal kabi turlari mavjud.

Normativ huquqiy aktning huquq ijodkorligi subyekti bo'lgan organ qabul qiladi. Sharhlashni esa muayyan vakolatli organ amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, huquqni sharhlash hujjatlari turli yuridik kuchga va amaliy ahamiyatga, ya'ni turli yuridik xususiyatga ega bo'lgan huquqiy hujjatlarning murakkab, ko'p darajali tizimidan iboratdir. Huquqni sharhlash hujjati – muayyan huquqiy normani qay tarzda tushunish va amaliyotda qo'llashni

⁷ Odilqoriyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: "Adolat" nashriyoti, 2018. – 205 bet.



tushuntirib beruvchi hujjat ekanligi uni har sohadagi normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi bilan talabag egaligidan ko'rishimiz mumkin. Subyektlarga bog'liq ravishda huquqni sharhlashning ikki turi, ya'ni rasmiy sharhlash va norasmiy sharhlashni alohida farqlash qabul qilinganligi va ular ham bir qancha turlarga bo'linishi asosli ekanligiga yuqorida to'xtalib o'tildi. Bu mazmunda sharhlarning ko'rinishlari normativ huquqiy hujjatlarni mazmunini yanada tushunarli bo'lishga asos bo'lishi aytiladi.

Huquqni sharhlash hujjatlarini normativ-huquqiy hujjatlardan farqli jihatlari mavjud. Bu farqli jihatlar mavjudligiga qaramasdan normative huquqiy hujjatsiz hech qanday sharh bo'la olmasligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Hozirgi vaqtda huquqni qo'llash jarayonida huquqni sharhlash hujjatlarini o'rni baland, ayniqsa oshib bormoqda. Chunki "inson qadri" tamoyili ishlashi uchun huquqni qo'llash jarayoni qonuniy va aniq amalga oshirilishi kerak. Bunga ko'makni albatta, huquqni sharhlash hujjatlari bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

I.Normativ huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Toshkent – "O'zbekiston" – 2021;
2. O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-sonli Qonun. 2021- yil 20-aprel;
3. O'zbekiston Respublikasi "Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi O'RQ-687-sonli Konstitutsiyaviy Qonun. 2021-yil 27-aprel.

II.Asosiy adabiyotlar:

1. Odilqoriyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. 1-nashr – T.: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, 2009. 2) Odilqoriyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: "Adolat" nashriyoti, 2018.
2. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. 2-nashr – T.:Yuridik adabiyotlar publish, 2021
3. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / Mas'ul muharrir yuridik fanlari doktori, dotsent N.P.Azizov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018 5) Теория государства и права: учебник" (Н.И. Матузов, А.В. Малько) (Юристъ, 2004)
4. 6) Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrirlar: H.Rahmonqulov, akademik, yu.f.d., prof., – H.Boboyev, yu.f.d., prof. – T.: Adolat, 2007;
5. "Теория государства и права: учебник" 4-е издание. Л.А.Морозова.